

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA SO‘FI OLLOYORNING “ SABOTUL OJIZIN” ASARIDAGI KELTIRILGAN “MA’RIFAT” BAYONI.

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Ibrohimova Muslimaxon Umidjon qizi

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada Sofi Olloyiy qalamiga mansub “Sobotul ojizin” asaridagi ma’rifat so‘zining mazmun-mohiyati, unda ilgari surilgan ma’rifiy g‘oyalar hamda axloqiy-didaktik qarashlar tahlil qilindi. Maqola bayonida ko‘tarilgan ma’naviy poklanish, ilm ahamiyati, johillikning zarari, nafsni tarbiyalash, komil inson fazilatlari singari masalalar ilmiy asosda sharhlanadi. Shuningdek, asarning ma’rifiy qadriyati va o‘zbek adabiy-ma’naviy merosidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari “Ma’rifat bayoni”ning bugungi ma’naviy tarbiya jarayonida ham dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. So‘fi Olloyor, Ma’rifat, oriflik, aqida

Kirish

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri — So‘fi Olloyor o‘zining “Sobotul ojizin” asarida nafaqat diniy–tasavvufiy qarashlarni, balki inson kamoloti, ma’naviy poklanish va ma’rifatga erishish yo‘lidagi zarur fazilatlarni keng yoritadi. Asarda shoir ilmning mohiyati, uning inson hayotidagi o‘rni hamda johillik oqibatlarini chuqur badiiy ifoda etadi.

Ma’rifat so‘zi “Sobotul ojizin” da sakkiz marotaba ishlatilgan bo‘lib, har o‘rinda ayni manosida qo‘llanilgan. Ushbu asarda “Ma’rifat” so‘zi avvalo tanimoq, bilmoq ma’nolarini anglatgan. ““Ma’rifat” deganda –narsaning belgilarini (sifatlarini) idrok qilish tushunilsa, ilm orqali bilishda narsaning o‘zini (zotni) idrok qilish tushuniladi. Boshqacharoq aytilsa, ilgari xabardor bo‘lmagan narsani keyin bilish ma’rifatdir.”¹ Hozirgi kunga ma’rifat so‘zining ma’nolari kengaygan bo‘lib, ma’rifat –kishilarning ongini, bilmini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim tarbiya deb qaraladi. Tasavvufda har bir sofiy, ruhiy kamolatga

erishidh yo'lida bosib o'tiladigan bosqich (maqom) lardan biri hisonlanadi. So'fi Olloyor "Ma'rifat"ning shartlarini shunday izohlaydi:

Nedur qulluq ani mushoqi bo'lmoq,

O'zidin foni Haqq'a boqi bo'lmoq.

Birinchi misrasida qullik nima? Degan savol qo'yiladi. Tasavvufda "qullik" Allohga chin bandalikni anglatadi So'fi Olloyor ma'rifatli bo'lishning eng birinchi sharti Yaratganga bandalik tushunchasi tushunish bilan bog'liq va Yaratganga mushtoq bo'lmoq zarurdir deydi.

Tanimog' Tangrini tonmog' havodin,

Keyin turmog' faoli noravodin.

Bo'yinsunmog', yugurmog' "qil!" demishda,

Qazog'a rozi bo'lmoq barcha ishida.

Ikkinchi sharti esa, banda turli tuman dunyoviy hoju havaslardan voz kechishi va axloqsizlikdan yiroq bo'lishi kerak. Uchinchi sharti, ma'rifatli inson Yaratgan buyurgan amallarini bajarishligi, sodir- bo'layotgan har bir voqealarni taqdir deb bilishligi.

Umid etmog' o'shal qudrali Shayhdin,

Yonardin, xavf etib, yonmog' gunahdin,

Yaqin bilmog', jamoat e'tiqodin,

Keyin solmog' muxolif ijtihodin.

Bu misralarda har vaqt yakkayu yagona Zotdan umidvor bo'lish hamda do'zax borligidan va u yerda gunohlar uchun yonishdan qo'rqish, shu sabab gunohdan qaytish bu oriflikning beshinchi sharti deb qaraladi. Oltinchi sharti, ahli sunnat val jamoat etiqodini o'ziga yaqin tutib, unga xilof noto'g'ri harakatlarni e'tiborga olmaslik va inson aqidada yoki so'zda, amalda, shariy asosga ega bo'lmagan bir ishni din bog'lasa bu bid'atdan dalolatdir.

Aqida bilmagan shaytona erur,

Agar ming yil amal deb qilsa, eldur.

So‘fi Olloyor oriflikning shartlarini izohlar ekan, ma‘rifatning asl mohiyati e‘tiqodda ko‘rinadi. Shuning uchun ham e‘tiqod masalasida xushyor bo‘lishlik, ushbu tushunchadan bexabar kishi ya‘ni aqidaning asl mazmuni tushunmaydigan, aqidasi buzuvchi inson shaytonga eldir, bunday insonning esa, har doim ming yillardan beri qilayotgan bo‘lsa ham, barcha amali bekordir deyiladi. “Sabotul ojizin” asarida “Ma‘rifat”ga shunday ta‘rif va shartlari mavjudligi haqida chuqur tasavvufiy ma‘luotlar beriladi.

Xulosa

Sofi Olloyirning “Sabotul ojizin” asarida “ma‘rifat” so‘zi chuqur ma‘noni anglatadi va komil inson tarbiyasining asosiy omili sifatida talqin etilgan. Muallif ma‘rifatni nafaqat ilm egallash, balki insonning ruhiy poklanishi, nafsni tarbiyalashi va Haqni tanish yo‘lida zarur bo‘lgan eng yuksak fazilat sifatida ko‘rsatadi. Asarda ma‘rifat — insonni haqiqiy kamolotga eltuvchi yo‘l, jaholatni yo‘qotuvchi qudrat va jamiyat taraqqiyotining bosh sharti ekanligi ta‘kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rashid Zohid. “Sabotul ojizin” sharhi. Ravoyihur rayhon.–Toshkent: “Matbaachi”, 2024,-576 b.
2. Mahbub Jamol Ochqurun “ Sabotul ojizin” kitobi, “Sho‘ro”. 1917. 7-son.
3. Adizova Iqboloy .O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. FAN,2019.